


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-yashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir
Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-q'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
AZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Angara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zRFA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f.d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesia)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Ohio State University, PhD, prof
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk University
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		

Tahririyat kengashi

PEDAGOGIKA BO'YICHA

EGAMBERDIYEVA T.	FarDU, p.f.d., prof.	DAVLYATOVA G.	FarDU, p.f.n., dots.
XONKELDIYEV Sh.	FarDU, p.f.d., prof.	BAYDJANOV B.	FarDU, p.f.n., dots.
TOJIBOYEVA H.	O'z Res FA Pedagogika ITI p.f.d. (Dsc)	ABBASOVA N.	FarDU, p.f.f.d., dots.
QURBONOVA B.	FarDU, p.f.d. (DSc), prof	GOFUROVA N.	FarDU, p.f.f.d.
O'RINOVA N.	FarDU, p.f.n., dots.	URAIMOV S.	FarDU, p.f.f.d., dots. (DSc)

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

X.S.Umarxo'jayeva	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ta'lif sohasi talabalarida ingliz tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish usullari	117
D.A.Solixo'jayeva	
Professional ta'lif muassasalarida tahlil olayotgan o'quvchilarni milliy qadriyatlar vositasida mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi	120
D.Aminova	
Internetda PR kommunikatsiya xususiyatlari	126
U.G'.Abdullaeva	
Ekologik ta'lif-tarbiya ni amalga oshirishga tayyorlashning zamonaviy usullari	132
D.Y.Tashnazarov	
Sportning yunon-rim kurash turida texnik tayyorgarligini takomillashtirishda tik turgan holatdan yelkalardan oshirib tashlash harakatining samaradorligi (<i>chap tomoniga bajarish asosida</i>)	135
J.G'.Obidov	
Texnika oliv o'quv yurtlarida o'quv materiallarini imitatcion-variativlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalariga ta'sir ko'rsatuvchi didaktik manbalarni yaratish hamda zamonaviy o'quv jihozlaridan ratsional foydalanish	144
A.R.Qodirov	
Bo'lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini interaktiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi	151
M.A.Esonmirzayeva	
Bo'lajak pedagoglarning metakompetentligini rivojlantirish usullari va takomillashtirish yo'llari	156
N.B.Dusimbetova	
Jurnalistikaning til madaniyati va nutq kompetensiyasini shakllanish tamoyillari	160
G.M.Zoitova, Z.F.Arabjonova	
35-40 yoshdagi ayollarda sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida akvafitness vositalaridan kompleks foydalanish	165
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rim kurashchilarini texnik tayyorgarligini takomillashtirishda tik turgan holatdan yelkalardan oshirib tashlash harakatining kinematik asoslarini o'rganish (<i>o'ng tomoniga bajarish asosida</i>)	172
B.Q.Baratov	
Badiiy-tarixiy materiallar vositasida bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati	181
N.A.Abdullayeva	
Implementing flipped classroom method in teaching phrasal verbs	185
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoiy texnologiya" fanining tuzilishi, mazmuni va takomillashtirish modeli ..	189
N.M.Xodjibolayeva	
Pedagogika fanlari xamkorligi asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy masalalari	196



УО'К: 378.1:37.013+37.015.3

**BO'LAJAK PEDAGOGLAR AXLOQIY-ESTETIK KOMPETENTLIGINING INTERAKTIV
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ НРАВСТВЕННО-
ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

**METHODS OF DEVELOPING INTERACTIVE ABILITIES OF MORAL AND AESTHETIC
COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS**

Qodirov Abubakr Rashodjon o'g'li

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini rivojlantirish metodikasida, shaxsni yahshi tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish pedagogining eng asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni ma'naviyati yuksak inson sifatida tarbiyalash pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalidagi ustuvor faoliyatni anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tiltilgan. Dunyoqarash, e'tiqod, ezbilik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doir ko'nikmalarining shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshirilishi bayon qilinganligi tadqiq qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматривается методика развития нравственно-эстетической компетентности будущих педагогов, где основная функция педагога заключается в правильном воспитании, обучении и формировании личности. Воспитание личности как высоконравственного человека является ключевым понятием педагогики и представляет собой приоритетную совместную деятельность семьи и общества, направленную на формирование гармонично развитой личности. Воспитание способствует утверждению духовных аспектов личности. Утверждается, что такие качества, как мировоззрение, убежденность, добродетель, красота, доброта и справедливость, могут быть превращены в черты личности только посредством воспитания.

Abstract

In this article, in the methodology for developing the moral and aesthetic competence of future teachers, the main function of the teacher is to educate, train and form a person. The education of a person as a person with high spirituality is considered a basic concept in pedagogy and means the joint priority activity of the family and society aimed at the formation of a harmonious personality. It is envisaged to determine the spiritual aspects of the human personality with the help of education. It is studied that the transformation of worldview, beliefs, virtue, beauty, goodness, and justice into personal qualities is possible only with the help of education.

Kalit so'zlar: intellektual, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, intellektual salohiyat, uzlusiz ta'lim, pedagogik treninglar.

Ключевые слова: интеллектуальный, социально-экономический, духовно-просветительский, интеллектуальный потенциал, непрерывное образование, педагогическая подготовка.

Key words: intellectual, socio-economic, spiritual-enlightenment, intellectual potential, continuing education, pedagogical training.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning zaminida xalqimizni ezgu g'oyalar sari dadil odimlayotganligini teran anglash qiyin emas, albatta. Ayniqsa, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasi asosida O'zbekiston taraqqiyotining yangi davrga kirib kelgani, jamiyatda olib borilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi islohotlar, eng avvalo, yurtimiz taraqqiyotiga zamin yaratdi. Zamonaviy ta'limi rivojlantirish borasidagi vazifalar, umummilliy maqsadlarga, umumxalq harakatiga aylandi. "Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishning maqsadi, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va uni muhofaza qilishdan iboratdir. Ilm-fan va davlat hokimiyati

hamjihatligidagi sa'y-harakati, shuningdek,, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual zaxiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish, yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik tashkiliy-uslubiy asoslarini yaratishdan iborat”[1] ligini ta'kidlash lozim. Ushbu jarayonda axloqiy-estetik tarbiya'ni klaster tizimi asosida takomillashtirish, jamiyatni badiiy-estetik qadriyatlarga munosabatini maqsadli yo'naltirish, axloqiy-estetik tuyg'u va tasavvurlarni birlashtirish zarur bo'lgan vazifalarni amalga oshirishning samarali shakl va usullarini amaliyotga tatbiq etish muhim nazariy-metodologik va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ta'lim darajasi, unda berilayotgan bilimlar saviyasi va ko'nikmalarni rivojlantirish orqali yangi dunyoqarashni shakllantirish jarayonlarini hisobga olish zarur. “Shu ma'noda, mutafakkir Abdurauf Fitratning “Bu dunyo – kurash maydonidir. Bu kurashning quroli sog'lom jismu tan, o'tkir aql va yaxshi axloqdir” [2].

Bunda yoshlarning intellektual salohiyatining ijtimoiy-madaniy jihatlari “intellektual salohiyat” sifatida “inson faoliyatining intellektual tomonini aks ettiradi, bu esa kasbiy vakolatlarga oid masalalar bilan chambarchas bog'liq” [3] bo'ladi. Zamonaviy jamiyatlardagi yoshlarning intellektual salohiyat samaradorligini quyidagi mezonlar bo'yicha baholash mumkin.

Birinchidan, yoshlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati (ilmiy nashrlar, grantlar, akademik harakatchanlik, tanlovlardagi va konferensiyalardagi faolligi).

Ikkinchidan, mehnat bozorida bitiruvchilarga talab (ish bilan ta'minlangan bitiruvchilar soni).

Uchinchidan esa, ish beruvchilarning o'quv jarayonidagi ishtiroki (tashkilotlar buyurtmasi bo'yicha bitiruv malakavly ishlarni bajarish, nazariy va amaliyot uyg'unligini ta'minlash).

Shunday qilib, yoshlarning bilim darajasi o'sishi, intellektual salohiyatning shakllanishi va rivojlanishi zamonaviy mehnat bozorida yuqori raqobatbardoshlikning kafolati hisoblanadi.

“Uzluksiz ta'lim va kasbiy rivojlanish yoshlarning intellektual qobiliyatlarini imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi, bu esa kasbiy o'sish va turmush darajasini ko'tarish istiqbollarini oshiradi” [4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik esa, mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olishi. “Kompetent” so'zi lotincha “copeto” so'zidan olingan bo'lib, “erishyapman, munosibman” degan ma'noni anglatadi hamda ma'lum sohadan xabardorlik va tajribaga ega ekanlikni bildiradi.”[5]. Bo'lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini rivojlantirish konsepsiysi pedagogik jarayonda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu konsepsiya, o'qituvchilarning faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarni axloqiy va estetik, intellektual salohiyat jihatdan ham tarbiyalashga qaratilgan metodologik faoliyatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

MUHOKAMA

Pedagogning axloqiy-estetik kompetentligi bu uning axloqiy va estetik qadriyatlarni, me'yorlarni, norma va talablarni o'z faoliyatida amalga oshira olish qobiliyati hamda ularni o'quvchilarga yetkazish va ular bilan munosabatlarda qo'llay olishni taqozo qiladi. Axloqiy-estetik kompetentlikni anglash o'z bilim va ko'nikmalarini axloqiy va estetik qadriyatlarni bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llanilishini anglatadi va quyidagi omillarni o'z ichiga oladi:

- axloqiy tamoyillar asosida insonparvarlik, adolat, mehr-oqibat, samimiyat kabi asosiy qadriyatlarni;

- estetik qarashlar negizida go'zallikni va san'atni anglash, tafakkur va his-tuyg'ularni boshqarish, estetik idrokni rivojlantirishni qamrab oladi.

Bo'lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini rivojlantirishdagi usullar jarayoni qo'llaniladi. Ma'rifatli pedagogik treninglar qo'llash jarayonida axloqiy-estetik qadriyatlarni, badiiy va estetik didlarni rivojlantirishga qaratilgan tre ninglarni o'tkazishdan iborat bo'ladi. Rivojlantirish

PEDAGOGIKA

usullaridan yana biri bu modellashtirishdir. Bunda ustozning o'z faoliyatida axloqiy va estetik me'yirlarni namoyish etishi, o'quvchilarga o'z misolida ta'limga berishini hisobga olishni taqozo etadi. Rivojlantirish usullaridan yana biri sifatida aqliy va hissiy rivojlanishdir. O'qituvchilarga o'z fikrlarini aniq ifodalash, hissiy intellektni rivojlantirishga yordam beradigan amaliy mashg'ulotlarni e'tiborga olish mumkin. Shu asnoda pedagogning shaxsiy namunasi uning o'qituvchilik faoliyatidagi asosiy vosita hisoblanadi. Pedagog o'zining axloqiy va estetik qarashlari, uning o'quvchilariga ta'sir etish uchun pedagoglar o'zini doimiy ravishda tarbiyalashlari va shaxsiy misollarini o'quvchilarga ko'rsatishlari zarur bo'ladi.

Bo'lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini rivojlantirish konsepsiysi bo'lajak pedagoglarning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy jihatdan ham rivojlanishiga yordam beradi. Bu jarayon nafaqat o'quvchilar uchun, balki butun jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini rivojlantirish konsepsiysi, pedagogik faoliyatda axloqiy-estetik qadriyatlar va me'yirlarni amalgaga oshirishni ta'minlaydigan, bo'lajak pedagogning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladigan tamoyillarga asoslanadi. Axloqiy-estetik kompetentlik pedagogning axloqiy va estetik qadriyatlarni nafaqat o'z faoliyatida, balki hayotining har bir sohasida amalgaga oshirishi va o'quvchilarga ushbu qadriyatlarni o'rgatishi qobiliyatidir. Insoniylik va hurmat yuzasidan bo'lajak o'qituvchi ya'ni pedagog o'quvchilarga inson sifatida hurmat bilan yondashuvchi va ularning fikrlarini qadrlovchi bo'lishi kerak. Bu pedagogning o'zida ham hurmat va muomala madaniyati bo'lismeni talab etadi. O'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan hurmati, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va bu pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlaydi.

Bo'lajak pedagoglarning kreativligi, san'atga, musiqa va madaniyatga bo'lgan qiziqishlari uning o'quvchilarga estetik qarashlarni shakllantirishdagi muvaffaqiyatini oshiradi. Pedagogning o'quvchilarga san'atni, musiqa va adabiyot orqali estetik didni rivojlantirishga yordam berishi, ularni kreativ fikrleshga o'rgatadi. Shuni ta'kidlash joizki, axloqiy-estetik kompetentlik, pedagogning umumiy maqsadlariga xizmat qiladi. Asosiy pedagogik maqsadlar, mayllar negizida, o'quvchilarni axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash, bunda pedagogning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga axloqiy va estetik qadriyatlarni o'rgatishdan iborat bo'ladi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning shaxsiy axloqiy me'yorlarini shakllantirishga yordam beradi. Bunda esa pedagog o'quvchilarga samimiyat, halollik,adolat, sabr-toqat va hurmat kabi axloqiy qadriyatlarni o'rgatish kerak bo'ladi.

Bo'lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini rivolantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri treninglar va seminarlar tashkil etish bo'lib, ushbu treninglar pedagoglarga o'z bilimlarini yangilash va rivojlantirish imkonini beradi, shuningdek, ularni amaliy mashg'ulotlar orqali axloqiy va estetik jihatlarni qo'llashga o'rgatadi. Jamoaviy ishlar va hamkorliklarni olib borishda bo'lajak pedagoglar o'rtaida jamoaviy ishslash, bir-biridan o'rganish va o'zaro tajriba almashish, pedagoglarning o'zaro hamkorlikda o'zlarining axloqiy va estetik kompetentliklarini rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogning shaxsiy misoli va tarbiyaviy ta'siri jarayoni, bo'lajak pedagogning o'z shaxsiy misoli o'quvchilarga ta'sir qiluvchi eng kuchli vositasidir. Pedagog o'zida yuqori axloqiy va estetik qadriyatlarni namoyish etganida, bu o'quvchilarga ham ularga rioxaya qilishni o'gartadi. Pedagogning o'ziga xos xulq-atvori, estetik qarashlari va professional mahorati o'quvchillarda o'zgarishlarga olib keladi. Bu pedagogning o'quvchilarga nafaqat bilim, balki hayotiy qadriyatlarni ham o'rgatishi imkoniyatini yaratadi. "Axloqiy-estetik tarbiya birdan paydo bo'lmaydi, o'z-o'zidan rivojlanmaydi, balki bu jarayon bilim, ko'nikma, tajriba asosida bosqichma-bosqich amalgaga oshadi. Chunki inson dunyoga estetik qarashi boy, tuyg'ulari va didi tarbiyalangan holda kelmaydi. Aksincha, bu fazilatlar kuzatish, o'rganish, tahlil qilish va xulosa chiqarish yo'li bilan amalgaga oshadi. Zero, inson tuyg'ular ta'sirida o'zi uchun mutlaqo yangi bo'lgan olamni kashf etadi. Bu jarayon jamiyat a'zolarining o'zaro hamkorligining ta'siri natijasida reallikka aylanadi.

Estetik tarbiya ana shu ta'sirlarni go'zallik va ulug'vorlik asosida yo'naltirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, global tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda estetik tarbiyaning zamonaviy usullari, yo'llari va vositalarini yanada takomillashtirish dolzarb bo'lib bormoqda" [6].

Axloqiy va estetik tarbiya uzlusiz tizimli jarayon. Uning ibtidosi oiladan boshlanadi va maktabgacha ta'limga, umumta'limga, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'limga mustahkamlanadi. Bu jarayonning mustahkamligi esa tarbiyachi-pedagog, o'qituvchi-murabbiylar bilan bir qatorda

davlat xizmatchilarining ham asosiy vazifasidir. Bu vazifalarning to'laqonli ijrosi oilada - ota va onaning, ta'lif muassasasida – pedagogning, davlat xizmatlari sohasida – rahbarning estetik tarbiyatagi shaxsiy namunasi asosida ta'minlanadi. Xalqimiz ma'nnaviy merosida axloqiy va estetik tarbiya sohasiga tegishli masalalar ulug'lar e'tiboridan chetda qolmagan. Hatto, jahon ilmiy jamoatchiligining e'tirofiga sazovor bo'lgan ajododlarimiz nafosat tarbiyasiga bag'ishlab maxsus asarlar yozgan. Jumladan, "Musiqqa haqida katta kitob" (Abu Nasr al-Forobi), "She'r haqida risola" (Ibn Sino), "Majolis un-nafois" (Alisher Navoiy) va boshqa asarlar ta'sirida jahon estetik tafakkuri yangilandi va taraqqiy etdi[7].

Jadid mutafakkiri Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yohud axloq" risolasida ta'kidlab o'tganidek, - "Axloq insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshilagini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg'on kitobni axloq deyilur"[8].

Jadid mutafakkiri Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yohud axloq" asarida berilgan axloqiy me'yirlarni inson o'z hayoti davomida mujassam etishni va to'g'ri hayot yo'lini tanlashni e'tirof etadi. Estetik tarbiya - inson ma'nnaviy kamolotida muhim o'rinni tutuvchi, muayyan shaxsning xoxish-istagi tufayli emas, balki jamiyatning qonuniy ehtiyojlardan kelib chiqadigan ijtimoiyma'nnaviy zaruriyatdir. Estetik tarbiya birdan paydo bo'lmaydi, o'z-o'zidan rivojlanmaydi: bu jarayon bilim, ko'nikma, tajriba asosida bosqichma-bosqich amalga oshadi. Sababi, inson dunyoga estetik qarashi boy, tuyg'ulari va didi tarbiyalangan holda kelmaydi, aksincha, bu fazilatlar kuzatish, o'rganish, tahlil qilish va xulosa chiqarish yo'li bilan amalga oshadi[9].

Estetik tarbiyaning bosh maqsadi – insonda estetik madaniyatni yuksaltirishdan iborat. Bu jarayon - a) idrok; b) hissiyot; v) ehtiyoj; g) did; d) ideal kabi komponentlar yordamida takomillashadi[10].

Inson tuyg'ular ta'sirida o'zi uchun mutlaqo yangi bo'lgan olamni kashf etadi. Bu jarayon jamiyat a'zolarining o'zaro hamkorligi ta'siri natijasida reallikka aylanadi. Estetik tarbiya ana shu ta'sirlarni go'zallik va ulug'vorlik asosida yo'naltirishga xizmat qiladi. "Axloqiy-estetik tarbiya" iborasini yana bir olmon faylasufi Fridrix Shiller o'zining "Estetik tarbiya to'g'risida maktablar" (hemischa Über die ästhetische Erziehung des Menschen in einer Reihe von Briefen) nomli asarida qo'lladi. Asarda Shiller ham dramaturg, ham shoir, ham faylasuf sifatida estetika masalalarini, ayniqsa estetik tarbiya bilan bog'liq o'z davri uchun yangi bo'lgan nazariyalarni ilgari surdi [Johann Christoph Friedrich von Schiller. Über die ästhetische Erziehung des Menschen in einer Reihe von Briefen]. Chunonchi u risolada "Tafakkur qiluvchi va his etuvchi insonni tarbiyalash uchun, avvalo, uni estetik jihatdan tarbiyalash lozim" deydi[11]. Darhaqiqat, estetik tarbiya insonni yangiliklar yaratishga undabgina qolmay, ayni paytda, uni nafosat tamoyillari, go'zallik talablari asosida rivojlantirishga ham o'rgatadi.

Olim Abdulla Sher olmon shoiri, dramaturgi Fridrix Shillerning estetik tarbiya haqidagi mulohazalarini tahlil qilar ekan, uni "jamiyatni o'zgartirishni istaydi, lekin u inqilobiy o'zgarishlarga qarshi"- degan fikrni ta'kidlaydi. Shillerning nazidda, inqilob, - deydi..... - avvalo, axloqsizlik, u asrlar mobaynida qaror topgan axloqiy tamoyillarni ag'dar-to'ntar qilib tashlaydi; qolaversa, u nafosatga qarshi – inson tabiatini uyg'unligini buzadi, narsa mavjudligi tabiiy tartibining muqaddasligini va go'zalligini parchalab yuboradi. Shu bois jamiyatni qayta qurishdan avval insonni qayta qurmoq lozim. Buni esa shaxsning uyg'un rivojlanishini go'zallik vositasidagi tarbiya orqali amalga oshirish mumkin. Shiller uchun go'zallik – hodisaga aylangan erkinlik[12].

"Din bilan davlat", qonun bilan axloq bir-birdan yiroqlashgan, lazzat mehnatdan, maqsadga yetishish vositasi maqsaddan, g'ayrat mukofotdan uzilib qolgan hozirgi paytda, – deb yozadi Shiller «Insonning estetik tarbiysi to'g'risida maktublar» asarida, – ulkan yaxlitlikning kichik bo'lagiga abadiy bog'langan insonning o'zi ham bo'lak shaklga kirib bormoqda; o'zi harakatga keltirayotgan g'ildirakning bir xildagi shovqini ostida u endi tirikligining har tomonlama uyg'unligini ta'minlay olmaydi, u endi tabiatining insoniyligini ifodalash o'rniga o'z kasbi yoki ilmining surati bo'lib qoladi... Hayotbaxsh zehnning o'rnini o'lik harfxo'rlik egallaydi, sovuqqon xotira inson uchun daho va hissiyotdan ko'ra yaxshiroq rahbarga aylanadi[13].

Inson "tabiiy-genetik, ijtimoiy-tarixiy va ma'rifiy-madaniy hodisa va jarayonlarning subyekti / obyekti bo'lib, ular tabiat va jamiyat tomonidan yaratilgan hamda odamni shaxs sifatida shakllantiradigan hayotiy muhit hisoblanadi. Odamning ijtimoiylashuvi, turmush tarzi va

PEDAGOGIKA

avlodlarning uzlusiz yangilanishi mazkur muhitda ro'y beradi. Bu muhit moddiy va ma'naviy qadriyatlar iste'molchisi, tashuvchisi, ijodkori va yaratuvchilik faoliyatiga tayyor bo'lgan barkamol inson shaxsini vujudga keltiradi. Har qanday odam boshqa odamlar, ijtimoiy guruqlar va madaniy muhit ta'sirisiz "tirik murda" ya'ni individ holida qoladi, o'zligini anglamaydi. Demak, shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik va shaxsiy xususiyatlari rivojlangan, o'z xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadigan, o'ziga xos xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosini ifodalaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bu kabi yondashuvlar bo'lajak pedagoglarning axloqiy va estetik kompetentligini rivojlantirishda tarbiyaning ko'lami, tadqiqot doirasi va maqsadini ifodalash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, axloqiy va estetik tarbiyaning asosiy maqsadi – estetik boy dunyoqarashga ega bo'lgan shaxsni kamol toptirish hamda avlodlararo axloqiy va estetik tajribani ommalashtirishdan iborat bo'ladi. Shu ma'noda, axloqiy va estetik tarbiya jamiyatda ma'naviy muhit barqarorlikni ta'minlash hamda badiiy tafakkur va yuksak didni shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy ma'naviy ozuqa bo'lishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yuldashev Serobjon Urmonaliyevich. TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIY OMILLAR. Vol. 1 No. 1 (2024): TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH VA UNI BOSHQARISH TEXNOLOGIYALARI/ doi.org/10.5281/zenodo.10564383.
2. O.Ergashova. N.Abdiyeva. "Bola tarbiyasida milliy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarning roli". Yangi O'zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. – Тошкент: 2021y.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston". 2022y.
4. Dilafroz Pirmanovna Nazarova. BO'LAJAK PEDAGOGLARDA TEKNOLOGIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 ISSUE 8/2021. <file:///C:/Users/User/Downloads/bolajak-pedagoglarda-tehnologik-kompetentlikni-shakllantirish-yo'llari> % 20(1).-Buxoro.2020y.
5. Б.Э.Хусанов Эстетик тарбия: моҳияти, зарурияти, аҳамияти / НамДУ илмий ахборотномаси. 11 –сон. 2020 йил.
6. Современные концепции эстетического воспитания. -Москва: Наука, 1998г.
7. Авлоний А. Туркий гулустон ёхуд ахлоқ. -Тошкент., 1992й.
8. Шиллер Фридрих. Собрание сочинений в 7 т. Т.6. –М.: ГИХЛ, 1957г.
9. Абдулла Шер. Эстетика. Дарслик. -Тошкент: Ўзбекистон, 2014й.